



ISTE'MOL BOZORI

Surxondaryo viloyatida 2017 yil yanvar-sentabrda iste'mol bozori

Bugungi kunda, aholi ijtimoiy himoyasini muttasil yaxshilash bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida viloyatda aholi sonining o'sishi, daromadlarining ko'payishi kuzatilmoqda, aholining ish haqi va pensiya- larning oshirilishi natijasida esa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab o'zgarmoqda va chakana savdo aylanmasining hajmi oshmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 9 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 foizga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,2foizni tashkil etdi. Benzin, tamaki mahsulotlari va iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atlarini o'tgan yilga nisbatan 12,8 foizga ko'payishiga olib keldi.

YANVAR-SENTABRDA YIRIK KORXONALARNING JAMI CHAKANA SAVDO AYLANMASIDAGI
ULUSHI, FOIZDA.

